

Bo'lim o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 iyundagi 293-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi to'g'risidagi Nizom", Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 25 iyuldagi 283-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini qayd etish) tartibi to'g'risida Nizom", Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 1 martdagi 100-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi Nizom", Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 17 noyabrdagi 307-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Apostil qo'yish tartibi to'g'risidagi Nizom" hamda "Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash, ta'lim muassasalarini akkreditatsiyalash va ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni nostrifikatsiyalash bo'limi to'g'risidagi Nizom" asosida amalga oshiradi.

### **Bo'limning asosiy vazifalari:**

Vazirlar Mahkamasining Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash komissiyasining ishchi organi funktsiyalarini bajarish;

xorijiy mamlakatlarda berilgan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni e'tirof etish va nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini aniqlash) tartibi amalga oshirilishini tashkil etish va ta'minlash;

ta'lim va fan sohasidan chiqadigan rasmiy hujjatlarga apostil qo'yish;

xorijiy davlatlarning ta'lim bo'yicha organlari va xalqaro tashkilotlar bilan muntazam aloqada bo'lish, xorijiy davlatlarning ta'lim sohasida, jumladan litsenziyalash, akkreditatsiyalash va nostrifikatsiyalash bo'yicha tajribalarini o'rganish;

xorijiy davlatlarning litsenziyalash, akkreditatsiyalash, nostrifikatsiyalash va apostil qo'yish sohalaridagi ilg'or tajribalarini o'rganish, litsenziyalash hamda ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va ekvivalentligini qayd etish hamda apostil qo'yish jarayonini yanada takomillashtirib borish.

### **Bo'lim faoliyatida amal qiluvchi ma'yoriy-huquqiy hujjatlar:**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 293-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 25 iyuldagi "Rasmiy davlat hujjatlarini tayyorlash, hisobga olish, saqlash, topshirish hamda ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 283-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 1 martdagi “Nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 100-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarini davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi [21-sonli](#) qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 17 noyabrdagi “Apostil qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 307-sonli qarori.